

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

Oldingi tahrirga qarang.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI HUZURIDAGI ATOM
ENERGETIKASINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL
ETISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

(qaror nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi PF-5484-son **Farmoni** va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi PQ-3870-son **qarori** ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Oldingi tahrirga qarang.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi PF-5484-son **Farmoni** bilan O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining (keyingi o‘rinlarda “O‘zatom” agentligi deb ataladi) Ilmiy-texnik va ekspert kengashi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi PQ-3870-son **qarori** bilan O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining Atom energetikasini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

2. Quyidagilar:

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining Ilmiy-texnik va ekspert kengashi tarkibi 1-ilovaga* muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining Ilmiy-texnik va ekspert kengashi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga* muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining Atom energetikasini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

(2-bandning ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

1 — 3 ilovalar rus tilidagi matnda berilgan.

3. “O‘zatom” agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.S. Sultanov va “O‘zatom” agentligi bosh direktori J.T. Mirzamahmudov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 6-oktabr,
800-son

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.10.2018-y., 09/18/800/2010-son; 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)